

AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN MUTAXASSISLIK FANLARNI O'QITISHDA FOYDALANISH

Fayzullayev Sharofiddin Erkinovich

Assistent. Jizzax Politexnika instituti

ANNOTATSIYA :Ushbu maqolada mutaxassislik fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Unda dars jarayonida raqamli resurslardan foydalanish, interaktiv usullar yordamida o'quvchilar bilimini oshirish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar asosida talabalarning mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish yo'llari tahlil etilgan.

KALIT SO'ZLAR :Axborot texnologiyalari, mutaxassislik fanlari, ta'lim jarayoni, interaktiv usullar, raqamli resurslar.

Fayzullayev Sharofiddin Erkinovich

Assistant. Jizzakh Polytechnik institute

USING INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING SPECIALIZED SUBJECTS

ABSTRACT :This article discusses the effective use of information technologies in teaching specialized subjects. It analyzes the integration of digital resources in the learning process, the enhancement of students' knowledge through interactive methods, as well as ways to expand independent learning opportunities for students based on modern technologies.

KEYWORDS:Information technologies, specialized subjects, educational process, interactive methods, digital resources.

Fan, texnika va texnologiya, ayniqsa, elektronika va axborot vositalarining keng miqyosda rivojlanishi mutaxassislar tayyorlashga katta talablar qo'yilmoqda. Bu ta'lim samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Ta'lim samaradorligini oshirish ta'limni axborotlashtirish, axborot texnologiyalarini qo'llash bilan uzviy bog'liq.

Ta'limni axborotlashtirish quyidagilarga imkon beradi:

- ta'lim tizimini avtomatlashtirilgan ta'lumotlar bazadlari yordamida boshqarish, axborot vositalari va texnologiyalari bilan ta'minlash;
- ta'lim va tarbiyaning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakillarini tanlash metodologiyasini takomillashtirish;
- ta'lim oluvchilarni aqliy rivojlantirishga, ularda mustaqil axborot izlash, tajribalar o'tkazish, tadqiqotlar olib borish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan metodikalarini yaratish;

➤ ta'lim oluvchilarning bilim darajasini ob'yektiv, tizimli va tezkor nazorat qilish va baholashga imkon beruvchi testlar va diagnostik metodikalarni ishlab chiqish;

➤ ta'lim oluvchilarning salohiyatini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil egallash, axborotlarni qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o'qitish tizimlarini yaratish.

“Axborot texnologiyalari” atamasini fanga birinchi marta akademik V. M. Glushkov kiritgan. Olimning fikricha, axborot texnologiyalari – axborotni saqlash, qayta ishlash, uzatish va aks ettirishga imkon beruvchi metodlar, usul va vositalar kompleksi. U loyihalash – konstruktorlik ishlarida, pedagogik va tahririyat - noshirlik faoliyatida, tashkiliy boshqaruv va ilmiy tadqiqotda muhim rol o'ynaydi.

Bu va boshqa olimlarning mulohazalariga tayanib aytish mumkinki, axborot texnologiyalaridan foydalanish axborot - o'quv faoliyatining mutlaqo yangi metodidir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari qatoriga kompyuterlar, hisoblash lokal tarmoqlari, axborotni kiritish - chiqarish va o'zgartirish vositalari, katta hajimdagi axborotni arxivda saqlash vositalari, audiovizual axborotni boshqa shaklga almashtirish qurilmalari – multimedialar, zamonaviy aloqa vositalari, dasturlar va boshqalar kiradi.

O'quv jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini qo'llash quyidagi ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

➤ o'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash metodlarini yaratish va ilmiy nuqtai nazardan asoslash;

➤ o'quv fanlarini o'rganishda zarur bo'ladigan pedagogik dasturiy vositalarini ishlab chiqish va amalda qo'llash;

➤ o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali an'anaviy o'qitish metodikasini o'zgartirish.

Ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish uchun, eng avvalo, quyidagi vazifalarni hal etish zarur:

➤ o'qituvchilarga axborot texnologiyalari imkoniyatlari haqida ma'lumot berish va ularni axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash;

➤ o'quv fanlari bo'yicha yaratilgan dasturlarni o'rganish va tahlil qilish;

➤ axborot texnologiyalari kengroq qo'llaniladigan ta'lim yo'nalishlarini aniqlash;

➤ o'quv-metodik majmualar yaratish, texnik va dasturiy vositalarini tanlash;

➤ o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha me'yoriy hujjatlar majmuini ishlab chiqish;

➤ ta'lim muassasalarini kompyuter texnikasi bilan bosqichma-bosqich ta'minlash.

Ixtisoslik fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish quyidagilarga imkon beradi: foydalanuvchi va yangi axborot texnologiyalari

o'rtasida tezkor qaytar aloqani ta'minlash; ob'yektlar, jarayonlar va hodisalar qonuniyatlari to'g'risidagi o'quv axborotini kompyuter xotirasiga kiritish va ulardan keng foydalanish; katta hajimdagi axborotlarni arxivda saqlab, uni uzatish va foydalanuvchining ma'lumotlar bankiga murojaat qilishga; hisoblash, axborot izlash faoliyati jarayonlarini avtomatlashtirish, shuningdek o'quv eksperiment natijalarini qayta ishlash va yangi axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik maqsadlarini shakillantirish; ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish (tafakkur, estetik didi, kommunikativ qobiliyati, axborot madaniyati, tadqiqotchilik va konstruktorlik ko'nikmalari, ijodiy faolligi va boshqalarni); o'quv-tarbiya jarayonini jadallashtirish (o'qitish samaradorligini vasifatini oshirish, bilishni faollashtirish va rag'batlantirish, o'yinli vaziyatlarni yaratish, o'quv faoliyati tartibini tanlash va boshqalar); o'qitishda fanlararo aloqalarni chuqurlashtirish.

Nazariy ta'limning asosiy masalalari quyidagicha hisoblanadi: umumkasbiy fanlar bo'yicha ilmiy bilimlarni egallash; fan, texnika, yangi axborot texnologiyalari va ishlab chiqarishni tashkil etishga oid bilimlar tizimini shakillantirish; texnik fikrlashni rivojlantirish; ta'lim oluvchilarda mehnat madaniyati va ko'nikmalarini rivojlantirish (jumladan, rejalashtirish, ma'lumotnoma va adabiyotlar bilan ishlash, nazorat o'lchov asboblari va anjomlar, hisoblash texnikasi, kompyuter savodxonligi haqida bilim berish).

Amaliy ta'limning asosiy vazifalari quyidagilar: texnik va kasbiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimini shakillantirish; hisoblash texnikasi bilan ishlash; pedagogik faoliyatda yangi axborot texnologiyasini qo'llash; pedagogik amaliyotda bilimlarni qo'llash ko'nikma va malakalarini shakillantirish; texnik fikrlash va ijodiy faollikni rivojlantirish; mehnat madaniyati va tashkilotchilik malakalarini rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari – bu mutaxassisning kasbiy faoliyati vositasi. U rivojlanish jarayonini tezkor boshqarish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Данилюк А.Я. Метаморфозы и перспективы интеграции в образовании / А.Я. Данилюк // Педагогика, №2, 1998 г. С. 8 – 12.
2. Хасанова З.Д. (2013). Нравственно-эстетическое мировоззрение: сущность, структура, функции. Искусство и образование, (2), 71-77.
3. Шнейдер Л. Б. Профессиональная идентичность: теория,

эксперимент, тренинг / Л. Б. Шнейдер // М.: МПСИ, 2004. – 335 с.

4. Морозова И.С. Социально-педагогическая поддержка профессионального самоопределения учащихся вечерней сменной школы / И. С. Морозова, Е. В. Филатова. – Кемерово: ЮНИТИ, 2008. – 136 с.

5. Khamidov J.A., Khujjiev M.Y., Alimov A.A., Gafforov A.X., Khamidov O.A. "Opportunities and results to increase the effectiveness of multimedia teaching in higher education." Journal of Critical Reviews 7 (2020), 89-93. doi:10.31838/jcr.07.14.13

Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDPU, 2003. – 174 b.